

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**COMMUNICATIVE BARRIERS WITHIN THE FRAMEWORK OF SOCIAL BELONGING AND THE COMMUNICATION PROCESS****Nodirabegim Atadjanova**

Assistant Lecturer, Department of Theory of Foreign Languages

Faculty of Foreign Languages, Kokand State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

atadjanovanodirabegim@gmail.com

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: communicative barrier, social belonging, incongruence, introvert, semantic barrier, belonging crisis, extralinguistic factor, social crisis, expressions, psycholinguistic approach.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: This article scientifically analyzes the role of social affiliation in the communication process and the communication barriers associated with it. At the same time, the causes and factors of the emergence of communication barriers have been studied. The article examines factors such as misunderstandings, stereotypes, social distance and role differences arising from social affiliation, and highlights their impact on the communication process.

IJTIMOYIY MANSUBLIK VA MULOQOT JARAYONI DOIRASIDA KOMMUNIKATIV TO'SIQLAR**Nodirabegim Atadjanova***Qo'qon Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti Xorijiy tillar nazariyasi kafedrasida assistent**o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*atadjanovanodirabegim@gmail.com*Qo'qon, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: kommunikativ to'siq, ijtimoiy mansublik, nomuvofiqlik, introvert, semantik to'siq, mansublik inqirozi, ekstralingvistik omil, ijtimoiy inqiroz, iboralar, psixolingvistik yondashuv.

Annotatsiya: mazkur maqolada muloqot jarayonida ijtimoiy mansublikning tutgan o'rni hamda u bilan bog'liq kommunikativ to'siqlar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shu bilan birga kommunikativ to'siqlar paydo bo'lishining sabab va omillari tadqiq qilindi. Maqolada ijtimoiy mansublik asosida yuzaga keladigan tushunmovchiliklar, stereotiplar, ijtimoiy masofa va rol farqlari kabi omillar ko'rib

chiqilib, ularning muloqot jarayoniga ta'siri yoritildi.

КОММУНИКАТИВНЫЕ БАРЬЕРЫ В РАМКАХ СОЦИАЛЬНОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ И ПРОЦЕССА ОБЩЕНИЯ

Нодирабегим Атаджанова

Ассистент-преподаватель кафедры теории иностранных языков,
факультета иностранных языков Кокандского государственного университета,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам

atadjanovanodirabegim@gmail.com

Коканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: коммуникативный барьер, социальная принадлежность, инконгруэнтность, интроверт, семантический барьер, кризис принадлежности, экстралингвистический фактор, социальный кризис, выражения, психолингвистический подход.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируется роль социальной принадлежности в процессе коммуникации и связанные с ней коммуникативные барьеры. Одновременно изучаются причины и факторы возникновения коммуникативных барьеров. В статье рассматриваются такие факторы, как непонимание, стереотипы, социальная дистанция и ролевые различия, возникающие в результате социальной принадлежности, а также подчеркивается их влияние на процесс коммуникации.

Kirish. Muloqot har bir jamiyatda ijtimoiy o'zaro munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, muloqot jarayoni turli ijtimoiy omillar, xususan, ijtimoiy mansublik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy mansublik-shaxsning jamiyatdagi mavqei, o'rni va ierarxik pozitsiyani ifodalaydigan muhim tushuncha bo'lib, u muloqot jarayonida turli kommunikativ to'siqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Kommunikativ to'siqlar esa muloqotning to'liq va aniq amalga oshishiga xalaqit beradi, natijada tushunmovchiliklar, stereotiplar, ijtimoiy masofa va rol farqlari kabi hodisalar yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy mansublik va muloqot jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, kommunikativ to'siqlarning sabablarini aniqlash va ularni ilmiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masala sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Muloqot jarayonida qatnashchilarning o'zaro tushunish darajasi faqat subyektiv omillar bilangina bog'liq emas. Kommunikativ to'siq muloqotchilarning millati, fe'l-atvori, intilishi, dunyoqarashi, gender xususiyatlari, ta'lim darajasi, axloqiy me'yorlari, fikrlash-anglash qobiliyati, muloqotda ustunlik qiluvchi an'analari hamda ijtimoiy guruhga mansubligi kabi turli subyektiv omillar va aktual mansubligi, tashqi muhit ta'siri kabi subyektiv bo'lmagan omillar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

“Kommunikativ to‘siq – bu muloqot jarayonida yuzaga keladigan, ziddiyatlar keltirib chiqaradigan yoki o‘zaro tushunish, o‘zaro ta’sirga to‘sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklardir” [1].

“Kommunikativ to‘siq – samarali muloqotga to‘sqinlik qiluvchi yoki uni to‘liq to‘sib qo‘yuvchi ichki va tashqi sabab-hodisalar yig‘indisi” [2].

Hayotda turli xil toifadagi odamlar bilan to‘qnashish, muloqot qilish zarurati paydo bo‘lishi va juda kamdan-kam hollarda hech qanday to‘siq bo‘lmagan muloqotga erishish mumkin. Shuning uchun, odam o‘zida ziddiyatsiz muloqot qila olish kompetensiyasini shakllantirib borishi kerak. Muloqotdagi to‘siqlarni yengib o‘tish uchun odam o‘ziga yoki suhbatdoshiga tashxis qo‘ya olishi va to‘siqni kamaytirish yoki yo‘q qilish maqsadida o‘z nutqiy muloqotini unga moslashtirishi kerak [3].

To‘siqlar paydo bo‘lishining sabab va omillari turlicha talqin qilinadi:

turli madaniyatlar, millatlar vakillarining so‘zlashuvida madaniy jihatdan belgilangan muloqot normalarining farqlanishi;

o‘z avlodi madaniyati, qadriyatlar, ideallari tashuvchisi bo‘lgan har bir suhbatdoshning yoshidagi katta farq;

so‘zlar ma’nosini tushunishdagi xatolar;

adresat tomonidan hisobga olinmagan tagma’noning mavjudligi [4]. Ye.V.Zalyubovskaya odamlarning o‘zaro muloqotiga to‘sqinlik qiluvchi muayyan omillarni quyidagicha tasniflaydi:

a) guruhga xos ayrim belgilar (guruhdagi maqomlararo munosabatlarning nomuvofiqligi, shaxslararo salbiy munosabatlar);

b) muloqot qiluvchilarning individual psixologik xususiyatlari (ularning "uyatchanligi", "muloqotga layoqatsizligi", odamoviligi);

v) muloqot qiluvchilarning ijtimoiy munosabatlari va qadriyat yo‘nalishlarining nomuvofiqligi;

g) muloqot qiluvchilarning yoshi, kasbiy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy maqom jihatidan farqlari, shuningdek, muloqot sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy mansublikka oid to‘siqlar jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga tegishlilikni belgilaydi. Mansublik muammosini tahlil qilish muloqot jarayonida kommunikativ to‘siqlar paydo bo‘lishining sabablaridan biri sifatida shaxslararo muvofiqlikka to‘sqinlik qiluvchi omillarni ko‘rib chiqishga imkon beradi.

T.L.Vladimirova kommunikativ to‘siq paydo bo‘lishining asosiy lingvistik mohiyatini quyidagicha izohlaydi. “Men nimadir demoqchi bo‘lganimni aytdim, u men aytganimni tushundi” deb o‘ylash tipik xatodir. Bu illyuziya. Aslida suhbatdosh hamma narsani boshqacha yoki o‘zicha tushunadi.

Adabiyot o'qituvchisi jurnalni stol ustiga qo'ydi-da, dumaloq ko'zoynagini burni uchiga qo'ndirib, sinfga razm soldi.

Demak, gap bunday: o'ttizinchi yillar adabiyotini o'rganishni kechiktiramiz. RayONOdan topshiriq bo'ldi, bugun siz bizga «Baxtli bolalik» degan mavzuda erkin insho yozib berasiz...

Asror daftar orasidan ikki varaq yirtib olib «Baxtli bolalik» deb yozdi-da, o'yga toldi:

«Zoir to'g'ri aytdi. Insho erkin bo'lganidan keyin hammani majbur qilishning nima keragi bor? Hamma o'zini baxtli deb hisoblaydimi? Ana, Turob, akasining jasadini Afg'onistondan olib kelishdi. Onasi bunga chidolmay jinni bo'lib qoldi. Hozir jinnixonada. Yetti bola otasining o'ziga qolgan. «Men baxtliman...» deb boshlaydimi inshosini. Manzura-chi? Otasi ketib qolgan. Onasi ikkovi turadi. U nima deb yozadi?... Bunaqa gaplarga Zoir usta, qotirib tashlaydi. Umuman, baxtli bola u. Ota-onasi injener, uyda o'zi-yu singlisi. Gazetaga xabar yozadi. Nima istasa, shunga erishadi. Ergash-chi? Otasi aravakash. Dars tugashi bilan somonbozorga yuguradi. Shuni yozadimi? Agar Dilfuzalarga ham shu mavzu berilsa, u nimani yozadi? Ikki oyog'i qirqib tashlangan otasining injiqliklari, onasiz qolishning naqadar baxtsizlik ekanini bayon qiladimi? Xo'sh, o'zim-chi? O'zim nimani yozay, kechagi voqeanimi yo otam bilan to'yma-to'y yurishimnimi? Otamning o'yinchi xotinga suykaliishinimi? Ming la'nat!» Asror xayoliga kelgan fikrdan titrab, o'zini tutolmay qoldi. Qalamni stol ustiga taq etib urdi. O'ziga tikilgan nigohlarni tuyib, boshini egdi. Ich-ichida nimadir qizib, ko'kragini yondirdi. U sinfda o'tira olmasligini sezib, shart o'rnidan turdi-da, chiqib ketdi.(Tohir Malik "Alvido, bolalik")

Asrorning atrofida kechayotgan voqeliklar, ulardagi achchiq haqiqatlar berilgan insho mavzusiga mos kelmasligi uning ongida psixologik to'siq hosil qildi va u "Baxtli bolalik" mavzusini yoritib bera olmasligidan o'kindi. Vaziyat taqozosi bilan yuzaga kelgan kommunikativ to'siq bolaning insho yozishiga halaqit berdi.

Agar bir ijtimoiy guruhga mansub odamning xatti-harakati boshqa guruhga mansub odamga yoqimsiz tuyulsa, u o'ziga nisbatan yomon munosabatda bo'lib tuyuladi yoki hatto ataylab shunday qilyapti deb o'ylashi mumkin. Vaholanki, sabab butunlay boshqa, uning voqelikka munosabati boshqacha bo'lishi mumkin. I.A.Zimnyaya, xususan, muloqotda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan individual psixologik omillar orasida introvertlik xususiyatini ham ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, o'zbek mentalitetida bu holat ko'p uchraydi.

Introvert – bu o'zining ichki dunyosiga ko'proq e'tibor qaratadigan va tashqi dunyoga kamroq e'tibor beradigan shaxs turi. Qanchalik g'ayrioddiy bo'lmasin, introvertlar, agar ularni qiziqarli mavzularda to'g'ri muloqot qilishga jalb qilinsalar, juda yoqimli va qiziqarli suhbatdosh bo'lislari mumkin. Bu o'ychan odamlar ko'p narsalarni aytib berishlari va boshqalarni tinglashlari mumkin. Introvertlar, ko'pincha, sodiq va ishonchli do'stlarga aylanadi. Introvertning ishonchini so'zda emas, amalda qozonish kerak. Umuman olganda, bu juda qiziqarli va ba'zi

hollarda sirli odamlar, ularda katta imkoniyatlar yashiringan bo'lishi mumkin [5]. Biroq gap shundaki, ular o'zlariga mos bo'lmagan muhitga tushib qolsalar, "odamovi"lik xarakteri kuchayishi, "kommunikativ qobiq"qa o'ralib olishlari mumkin.

(Kelinchak) ishlarni indamay qilaverar, birov bir nima so'rasa "ha" yo "yo'q" so'zi qimtilgan lablari orasidan arang sirg'alib chiqar, o'zicha minba'd gap qo'shmasdi. Qaynona, qaynsingil, ovsinlar bilan suhbatlashib o'tirishni ham xush ko'rmasdi. Ovqat mahalida-ku miq etmaydi. Mana shu fe'li ko'pchilikka uncha singmadi. Bosh xususiyati "bulbuligo'yo"lik bo'lgan ayol zoti olamida bu kamdan-kam uchraydigan noyob hodisa edi.

"Ichimdan top"niyam ja bo'lakhasidan ekan-a, – derdi Rahima bosh chayqab.

Ha-ya, yuragi dimlanib, yorilib ketmaydimikin? – qo'shimchilardi kelinaya.

"Visir-visir"larning mazmunidan xabar topgan qaynota: "Sizlarga qulog'ingizni qoqib qo'lingizga beradigan bo'lsa yaxshimidi?!" deb tanbeh berardi. Lekin u o'g'lining ham kelinchak bilan munosabati sustroqligidan xavotirlanib qo'yardi. Bu boradagi axborot ham ojizalar orqali yetib keldi:

Beknazar ko'ngilsiz emish...

Nima sababdan, shu kamgapligi uchunmi?

Bu savolning javobi aniq emas edi. Ona yelkalarini qisdi.

Menam hayronman. So'rasam, o'g'lingiz tuzuk gapirmaydi.

Hay, sekin-asta ilib qoladi.

Biroq Beknazarning ilishidan darak yo'q edi. (Qamchibek Kenja "Palaxmon toshlari")

Yuqoridagi matnda ham ikki xil toifadagi oilaning kommunikativ munosabatlardagi nomuvofiqligi – qizning o'ta kamgapligi, "ichimdan top"ligi yangi oilaga singishib keta olmasligiga sabab bo'ladi. Natijada kommunikativ to'siq kuchayib borib, o'zaro munosabatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ to'siqqa sabab bo'ladigan omillardan yana biri rahbar va xodim o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. I.Mahmudov M.Vudkok, D.Frensis nazariyalariga tayangan holda rahbar va xodim munosabatlarida kommunikativ to'siq hosil qiladigan omillar qatorida rahbarga xos quyidagicha salbiy jihatlarni ko'rsatadi:

Shaxsiy qadriyatlarning shakllanmaganligi.

Muammoni yecha olmaslik.

Ijodiy yondashuvning yetishmasligi.

Itoatdagi xodimlarga ta'sir etolmaslik.

Boshqaruv malakasining sustligi.

Jamoa tashkil etishdagi sust qobiliyat [6].

Maktab direktori ko'pgina hamkasblari qatori qo'l ostidagi muallimlarining o'ziga faqat tobe emas, mute bo'lishlarini talab qilardi. Bu maktabdagi muallimlar harbiydagi itoatkor askarlar kabi direktor chizib qo'ygan chiziqdan chiqmasliklari shart edi. Qirq yillik umri maktabda o'tgan direktor chizgan chiziqdan yosh muallimning yurmasligi tabiiy bo'lsa-da, jamoada bu hol fojia kabi qabul qilinardi. Yig'inda direktor bo'yoq uchun bolalardan pul to'plashni buyurganda, Nilufar ota-onalar huzurida isnodga qolishga toqati yo'qligini aytib, bu ishdan bosh tortdi. O'sha yig'inda bu buyruqdan norozilar oz emasdi, lekin barchalari dardlarini ichlariga yutdilar, hech kim yosh muallimning yonini olmadi. Chunki direktorning qahriga uchrashdan ko'ra ota-onalarning norozi boqishlariga chidash osonroq edi. Garchi Nilufar yolg'iz bo'lsa-da, direktor ertami yo indinmi uning safiga boshqalarning qo'shilishidan cho'chib qoldi. (Tohir Malik "Eng kichik jinoyat")

Suhbatdoshlar aytilgan so'zlarning ma'nosini yoki ifodada yashiringan tagma'noni tushunmaganda semantik to'siq paydo bo'ladi.

Boshginamga ag'anagan, katta tog'lar, alvido!

Men ketarman hasratlanib, ruhi sog'lar, alvido!

Bu dunyoning sho'rishiga navnihollar tebraning,

Esliroq bog'boni yo'q, qoldi bog'lar, alvido!

Asqar Qosim

Hamshira buni o'qib, tushunmay yelka qisdi-da "qiziq, g'irt jinni ekan-ku", deb qo'ydi. (Tohir Malik "Shaytanat")

Muloqot ishtirokchilarining aytilayotgan ma'lumot, axborot yuzasidan tasavvurga ega emasligi intellektual to'siqqa sabab bo'ladi.

Amaki, navbatingiz bormi o'zi?

Men... urush veteraniman! – garchi urushdan keyin tug'ilgan bo'lsam-da, beixtiyor shunday deb yubordim.

Qiz yuzimga andak ajabsinib tikildi.

Qiziq, unchalik...o'xshamaysiz-ku?!

Qizim, men rus-yapon urushida (Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida 1904-1905 yillarda bo'lib o'tgan urush nazarda tutilmoqda – Sh.O.) qatnashganman! Qizning yuzlari ancha muloyimlashdi, yumshoqqina ohangda javob qildi:

Hmm... unda boshqa gap! Mayli, kira qoling!

(Sh.Otabek "Do'rmon hangomalari")

Tinglovchining urushlar haqidagi tarixiy ma'lumotlarni bilmasligi so'zlovchi uchun qo'l kelgan bo'lsa-da, aslida mantiqan kommunikativ to'siq yuzaga kelgan edi. Amakining nisbatan yoshroq ekanligi uchun Vatan urushi (1941-45 yillar)da qatnashganligiga shubha qilayotgan qiz

o‘zi hech qanday tasavvurga ega bo‘lmagan rus-yapon urushini eshitib, “haqiqatan urushda bo‘lgan ekan” degan noadekvat xulosaga keladi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, so‘zlashuvchilar bir toifadagi guruhga mansub bo‘lsalar ham, bilim darajasi nuqtayi nazaridan yuzaga kelgan nomuvofiqlik kommunikativ to‘siq keltirib chiqarishi mumkin.

Jamol Kamol Shekspirning bevosita ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan uch tomlik asarlaridan o‘ttiz donasini bir institutga olib boradi. Rektor moliyaviy ishlar bilan shug‘ullanuvchi prorektorga yuboradi. U shoirning oldida yuqoriga telefon qilib, kim bilandir maslahatlashadi.

Jamol Kamol degan shoir kitobini olib kelgan ekan, shuni sotib olishimiz mumkinmi?

Qiziq, siz Jamol Kamolning kitobi dedingiz, – deydi shoir prorektorga yuzlanib. – Bu – mening emas, Shekspirning kitoblari!

Unday bo‘lsa, Shekspirning o‘zi kelsin! – deydi savodi g‘ovlab ketgan prorektor.

Jamol Kamol xuddi qanotli tuya ko‘rgandek prorektorga hang-mang bo‘lib tikilib qoladi.

Shekspir juda uzoqda – Londonda turadi, yetib kelolmasa kerak.

Baribir o‘zi kelmasa bo‘lmaydi, bizda tartib shunaqa! (Sh.Otabek, “Do‘rmon hangomalari”)

L.P.Sarakunning ta’kidlashicha, mansublik nafaqat ijobiy, balki salbiy vaziyatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

E.Erikson uzoq vaqt davomida mansublik nazariyasini, jumladan, mansublik inqirozini o‘rgandi. E.Eriksonga ko‘ra, mansublik inqirozining ikki turi mavjud. Ulardan birinchisida odam qanday bo‘lishni xohlayotganini aniqlay olmaydi, lekin o‘zi uchun ba’zi maqsadlar va qadriyatlarni belgilab olishga harakat qiladi. Ikkinchi turda odamning juda ko‘p niyatlari bor bo‘lsa-da, ularning yo‘nalishlari bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, natijada, yo‘q deganda, ularning kamida bittasi orqa fonda yo‘qoladi.

Shuningdek, "mansublik inqirozi" tushunchasi inson hayotidagi muhim daqiqalarda duch keladigan vaziyatlarga nisbatan ham qo‘llaniladi: ish joyidan yoki avvalgi ijtimoiy maqomidan mahrum bo‘lish, ota-ona qaramog‘idan ajralish va mustaqil hayotni boshlash va h.k. [7].

Badiiy matnlarda mana shunday murakkab sotsiopsixologik jarayonlarning realistik tavlrlari ko‘plab uchraydi.

Hozir o‘qish emas, kitobni jo‘n varaqlash ham uni toliqtirar edi. “Tavba, – dedi Saidiy kitobni javonning ichiga uloqtirib, – odamlar buncha gapni qayerdan topib yozar ekan!” Soraxon kirdi. Uning ko‘ziga Saidiy kasalday ko‘rindi.

Ha, nima qildi? – Soraxon og‘zidagi saqichini qirsillatib. Saidiy anchadan keyin javob berdi? Yashashdan charchabman...

Obbo, nima qilibsizki, charchaysiz... Yoting, cho‘ziling...

“Yashashdan charchabman” degan soʻzga Soraxonning tushunmasligini Saidiy bilar edi, ammo bu fikrni uning fahmiga yarasha soʻzlar bilan aytishga erindi. (Abdulla Qahhor “Sarob” romani)

Buyuk soʻz ustasi Abdulla Qahhor mana shu kichik epizodda asar qahramoni Saidiy psixologik inqirozining butun boʻy-bastini namoyish qilgan. Birinchidan, uning butun hayot maslagiga aylangan adabiyot, kitob oʻqish, maʼrifatga intilish eʼtiqodining inqirozi sifatida oʻzi bir umr intilgan mansublik olamidani, yaʼni yozuvchilikdan quyiga – “kitobni uloqtirish” darajasiga tushdi. Ikkinchidan, asar qahramoni oilaviy guruhda ham oʻz maqsadlariga erisha olmagan edi. Er va xotinning mansublik kategoriyasidagi oʻzaro nomuvofiqligi oila inqiroziga, kichik guruh ikkala aʼzosining ham baxtsizligiga olib kelgan edi. Soraxon tomonidan birgina charchabman soʻzining “jismonan charchamoq” maʼnosi oʻzlashtirilganligi, ikkinchi “ruhiy charchamoq” maʼnosini, ruhiy charchoq, yotish, choʻzilish bilan bartaraf boʻlmasligini idrok etish darajasida emasligi orqali ular orasidagi nomuvofiqlikning naqadar chuqur ekanligiga ishora qilinadi. Demak, leksemalarning farqiga bormaslik, ularni oʻz oʻrnida qoʻllay bilmaslik ham mansublik nomuvofiqligini koʻrsatuvchi vositalardan biri boʻlishi mumkin ekan. Bundan koʻrinadiki, mansublik doirasidagi shaxslararo muvofiqlik shakllanishi uchun kommunikantlarning olam lisoniy manzarasini anglash darajasi ham bir xil boʻlishi talab etilar ekan.

“Mansublik – shaxsning ijtimoiy rollar doirasida qanday ijtimoiy-shaxsiy maqomda ekanligini anglashi, shuningdek, muayyan ijtimoiy guruhlariga oid oʻziga xos xususiyatlarni mujassam etgan faraziy tasvir bilan oʻzini oʻzi taqdim etish” [8]. Har qanday mansublik doirasining asosini lisoniy mansublik tashkil etadi, yaʼni soʻzlovchi oʻzi mansub boʻlgan ijtimoiy qatlamning oʻziga xos qirralarini nutqi orqali namoyon etadi. Shu maʼnoda “boy” va “kambagʻal” tushunchalari ham ijtimoiy mansublik hodisasida muhim ahamiyatga ega boʻlgan qatlamlarni ifodalovchi atamalar sifatida namoyon boʻladi.

Boy 1. Mol-dunyosi, davlati, boyligi koʻp; badavlat, davlatmand.

2. Iqtisodiy jihatdan mustahkam, hech narsadan kamchiligi, muhtojligi yoʻq; toʻkis, badavlat.

3. Boylarga murojaatda yoki ular haqida soʻz borganda, ularning nomi oʻrnida yoki nomiga qoʻshib ishlatiladi [9].

Kambagʻal[f.+a.–qashshoq,yoʻqsil]1.Muhtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi yetarli boʻlmagan; qashshoq, faqir, bechora [10]. Mansublik tushunchasidynamik xarakterda boʻlib, u yoki butarkibiy elementlarining ustuvorligiga bogʻliq.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanidan olingan quyidagi parchada Otabekning boy xonadon farzandi ekanligi, maishiy imkoniyati yuqoriligini taʼkidlash maqsadida ikki xil ijtimoiy mansublik doirasidagi holat interyer tasviri orqali farqlangan.“Saroyning toʻrida

boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda". (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

Oilaviy munosabatlar har bir jamiyatning o'zagidir. Oilaviy muhit to'la va qoniqarli munosabatlarning o'ziga xos qo'rg'oni sifatida tug'ilishdan to umrning oxirigacha har bir odamning yashashi, shaxs sifatida shakllanishi, o'sishi va rivojlanishi uchun xavfsiz va barqaror sharoit imkoniyatini beradi. Tabiiyki, oilalar bir-biridan farq qiladi, ularga madaniy, an'anaviy va diniy omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalq iboralari, maqol va matallarida ham boy va kambag'al tushunchalari o'z ifodasini topgan.

Boy boyga boqar, suv soyga oqar.

Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning bolasi gapirsin.

Boy kiysa: "Qutlug' bo'lsin!", kambag'al kiysa: "Qaydan olding?" Boyning ishi – farmon bilan, yo'qning ishi – armon bilan. Boyning qizi – sepi bilan, yo'qning qizi – epi bilan.

Boy, oxiri voy.

Boy xohlaganda yer, kambag'al – topganda.

Kambag'alni tuyaning ustida it qopar.

Bundan tashqari tarkibida boy va kambag'al so'zlari ishlatilmasa-da, mazmunan shu tushunchalarga xos voqelikni ko'chim orqali ifodalovchi paremiologik birliklar ham ko'p.

Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mansublik muloqot jarayonida muhim rol o'ynaydi va turli kommunikativ to'siqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu jumladan, tushunmovchiliklar, stereotiplar, ijtimoiy masofa va rol farqlari kabi omillar muloqotning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ijtimoiy masofa ortishi muloqot jarayonida axborotning noto'g'ri talqin qilinishiga va tushunmovchiliklarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Olingan natijalar oldingi tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Xususan, turli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning jamiyatdagi mavqei va ierarxiya o'rni muloqotdagi qiyinchiliklarni kuchaytiradi va rollar bilan bog'liq farqlarni yanada sezilarli qiladi. Shu bilan birga, stereotiplar va ijtimoiy farqlar muloqot jarayonida noto'g'ri talqin va tushunmovchiliklarga olib keladi, bu esa turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida samarali kommunikatsiya o'rnatishni murakkablashtiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mansublik bilan bog'liq omillarni hisobga olish muloqotdagi to'siqlarni kamaytirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ jarayonlarni rejalashtirishda va muloqot strategiyalarini ishlab chiqishda ijtimoiy mansublikka oid

jihatlarni e'tiborga olinishi lozim. Bu, o'z navbatida, muloqotning samaradorligini oshirish va tushunmovchiliklarning oldini olish imkonini beradi.

Xulosa. Maqolada muloqot jarayonida ijtimoiy mansublikning tutgan o'rni va unga bog'liq kommunikativ to'siqlar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy mansublik muloqotning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va tushunmovchiliklar, stereotiplar, ijtimoiy masofa hamda rol farqlari kabi to'siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, kommunikativ to'siqlarni yuzaga keltiruvchi omillar-shaxsning jamiyatdagi mavqei, ierarxik o'rni va ijtimoiy farqlar- aniqlanib, ularning muloqot jarayoniga ta'siri ilmiy jihatdan yoritildi. Natijalar muloqot samaradorligini oshirish va tushunmovchiliklarni kamaytirish uchun ijtimoiy mansublikka oid omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot natijalari ijtimoiy mansublik va muloqot jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi hamda kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqishda amaliy yo'l-yo'riqlarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Игебаева Ф.А. Деловые коммуникации в формировании коммуникативной компетентности современного специалиста агроуниверситета. // Репликация культуры общества в контексте профессионального образования. Коллективная монография. – Георгиевск: 2013. – С.78-113.
2. Владимирова Т.Л. Коммуникативные барьеры в деловом общении// <https://portal.tpu.ru>.
3. Игебаева Ф.А. Деловое общение: практикум. – Уфа: «Башкирский ГАУ», 2010.- С. 12-13.
4. <https://psylaser.ru/lectures/social-psychology/communicativef-communication.html>.
5. <https://psichel.ru/introvert>.
6. Махмудов И. Бошқарув психологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “YUNAKS-PRINT”, 2005. – Б. 27.
7. <https://psylogik.ru/256-jerik-jerikson.html>
8. Комолов О.Е. Феномен профессиональной идентичности в работах отечественных и зарубежных исследователей // Молодые исследователи образования. XVI Всероссийская научно-практическая конференция. Том II. – М.: ФГБОУ ВО МГППУ, 2017. – С. 202-204.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б. 301.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б. 357.